

## **5-Mavzu: Adolatli shoh va buyuk shoir**

### **Dars maqsadi:**

To'lqin Hayitning "Boburning ustozlari" asar mazmuni bilan tanishtirish;

Adolatli shoh va buyuk shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqida qisqacha ma'lumot berish;

Og'zaki nutqini va lug'at boyligini oshirish.

**Tayanch so'zlar:** Bobur, Umarshayx Mirzo, kitob, ustoz

**Didaktik materiallar:** Mavzuga mos rasmlar

### **Darsning borishi:**

#### **I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)**

Darsni tashkillashtirib olish.

**Faollashtiruvchi mashqni o'tkazish.**

**"So'zlar juftligi"** mashqi

*Juftlashib kelgan so'zlarni aniqlang.*

**MIRBOZOBUR**

#### **II. O'tilganlarni takrorlash. (10 daqiqa)**

"Oqilona javob" rivoyatining mazmuni so'zlab beriladi. Hikmatlardan yoddan ayttiriladi.

#### **III. Darsning asosiy qismi. (27 daqiqa)**

**Amaliy topshiriq.** So'zlarning birinchi bo'g'inidan yangi so'z hosil qiling.

**BOLA BURGUT**

Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Sizda qaysi so'z hosil bo'ldi?
2. Bu so'z haqida nima deya olasiz?

**Mavzuni tushuntirish.** Zahiriddin Muhammad Bobur haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

*Zahiriddin Muhammad Bobur Andijonda tavallud topgan. Bobur ham shoh, ham shoir bo'lgan. Bobur degan nom "yo'lbars" yoki "sher" degan ma'noni anglatib, jangdagi jasorati uchun berilgan edi. Otasi Umarshayx Mirzo, onasi Qutlug' Nigorxonim bo'lgan.*

**Matn ustida ishlash.** Muallif haqida ma'lumot beriladi.

To'lqin Hayit Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanidagi Dashnobod qishlog'ida tug'ilgan. Uning "**Meni kechir, bolajon**" "**Dashnobod xangomalari**", "**Vafo malikasi**", "**Qora Shahzoda**" asarlari nashr etilgan.



"Boburning ustozlari" asari o'quvchilarga navbatma-navbat o'qitiladi. Matn yuzasidan savollarga javob beriladi.

Hikoya kim haqida ekan?

Nega Boburning ustozni saroyga xomush holatda kirib kelayotgan edi?

Boburning ustozlari haqida nima deya olasiz?

Hikoyada qaysi allomalarning nomi tilga olingan?

Nima uchun Umarshayx Mirzoning ko'ngli sevinchga to'ldi?

Matndagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.


**arjumand** – aziz, qadrli, qimmatli

**ojiz** – kuchsiz

**padari buzrukvor** – ota

**Mashq daftari bilan ishlash.** Doiradagi harflarni to'g'ri joylashtirib o'qilsa, Bobur tarixiy asari qanday nomlanishini bilib olishadi. (Boburnoma)

O'quvchilarga asar haqida qisqacha ma'lumot beriladi:



*"Boburnoma" – Boburning tarixiy asaridir. Asarda Bobur hayotining barcha voqealari, uning harbiy yurishlari tasvirlangan.*

Rivoyat matnidan foydalanib, gaplarni to'ldiriladi.

**Umarshayx Mirzo** o'rnidan turib katta-katta qalin **kitoblarga** ko'z yogurtirdi. Ular **Abu Rayhon Beruniy**, **Ibn Sino**, **Ahmad Farg'oniy**, **Arastu**, **Pifagor**, **Ahmad Yassaviyning** devonlari ekanini ko'rib yengil tortdi. Zahiriddin Muhammad Boburning ota va onasining ismlarini yoziladi.

Qo'shimcha ma'lumot sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning ijodidan parcha o'qib beriladi va muhokama qilnadi:

*Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,  
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.  
Yaxshi kishi ko'rmag'ay yomonlig' hargiz,  
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.*

#### **IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)**

- Bugun darsda Zahiriddin Muhammad Bobur haqida nimalarni bilib oldik?

#### **V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)**

Hikoyani o'qing mazmunini so'zlab bering. Bobur haqida qo'shimcha ma'lumotlarni topib yozing.

### **6-Mavzu: Qatag'on qurbanlari xotirasi**

#### **Dars maqsadi:**

- Zahro Hasanovaning "Manguga muhrlanganlar yodi" hikoya mazmuni bilan tanishtirish;
- jadid bobolarimiz haqida qisqacha ma'lumot berish;
- og'zaki nutqini va lug'at boyligini oshirish.

**Tayanch so'zlar:** xotira muzeyi, jadid bobolar.

**Didaktik materiallar:** mavzuga mos rasmlar.

#### **Darsning borishi:**

#### **I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)**

Darsni tashkillashtirib olish.

**Faollashtiruvchi mashqni o'tkazish:** So'zlarni o'z o'rniغا qo'ying va jumlanı o'qing.

*BIZNING AJDODLARNI BURCHIMIZ O'RGANMOQ*

#### **II. O'tilganlarni takrorlash. (7 daqiqa)**

Hikoyani o'qing mazmunini yuzasidan suhbatlashiladi. Bobur haqida qo'shimcha ma'lumotlar so'raladi.

#### **III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)**